

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG LIRIKASIDA HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** XX asr o'zbek var rus adabiyoti rivojining eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Mana shu davrga kelib, adabiyotning eng yorqin yulduzlari tug'ila boshladi. Aleksandr Arkadevich Faynberg, o'zining sof samimiy tuyg'ulari bilan ming-millionlab qablarni zabt etgan serqirra ijodkor, ham adabiyot osmonining shunday yorqin yulduzlaridan biri sanaladi. Ijodkor asarlarida davrning eng dolzarb masalalari bo'lmish inson ruhiyati, tarixiy xotira, shaxsiy kechinmalar, jamiyat muammolarini badiiy uslubda talqin qilgan. Faynberg yuqoridagi mavzularni badiiy talqinda ochib berar ekan u bir vaqtning o'zida har bir asariga misli ko'rilmagan darajadagi falsafiy mushohadani mujassamlashtiradi. Shu kabi asarlardan Shoir lirikasining farqli jihati shundaki, asardagi falsafiylik o'quvchini zeriktirish o'rniga uni yanada qiziqtirib, o'z hayotini sarhisob qilishga undaydi. Shu bilan birga hayotiy voqealarning shoir kechinmalari bilan uyg'unlik hosili qilishi, bu real voqelikning o'ziga xos falsafiy mulohazani ifodalashi uning she'riyatini boshqa zamondoshlarinikidan yanada farqli qiladi.

**Kalit so'zlar:** lirika, hayotiy haqiqat, badiiy talqin, poetik obraz, metafora, ramziy obrazlar, inson ruhiyati, falsafiy lirika, tabiat tasviri, lirik qahramon, zamonaviy she'riyat, badiiy ifoda, adabiy tahlil.

**Abstract:** The 20th century is considered one of the most important periods in the development of Uzbek and Russian literature. It was during this period that the brightest stars of literature began to be born. Alexander Arkadyevich Feinberg, a versatile creator

who conquered thousands and millions of hearts with his pure and sincere feelings, is also considered one of these bright stars of the literary sky. In his works, the creator interpreted the most pressing issues of the time - the human psyche, historical memory, personal experiences, and social problems - in an artistic style. While Feinberg reveals the above topics in an artistic interpretation, he simultaneously embodies an unprecedented level of philosophical observation in each of his works. The distinguishing feature of the Poet's lyrics from similar works is that, instead of boring the reader, the philosophy in the work further interests him and encourages him to summarize his life. At the same time, the harmony of life events with the poet's experiences, the expression of this real reality as a unique philosophical reflection, makes his poetry even more different from that of other contemporaries.

**Keywords:** lyrics, real life truth, artistic interpretation, poetic image, metaphor, symbolic images, human psyche, philosophical lyrics, depiction of nature, lyrical hero, modern poetry, artistic expression, literary analysis.

**Аннотация:** XX век считается одним из важнейших периодов в развитии узбекской и русской литературы. Именно в этот период начали рождаться самые яркие звезды литературы. Александр Аркадьевич Файнберг, многогранный творец, покоровший тысячи и миллионы сердец своими чистыми и искренними чувствами, также считается одной из этих ярких звезд литературного неба. В своих произведениях творец в художественном стиле интерпретировал самые актуальные вопросы времени – человеческую психику, историческую память, личный опыт и социальные проблемы. Раскрывая вышеупомянутые темы в художественной интерпретации, Файнберг одновременно воплощает в каждом своем произведении беспрецедентный уровень философского анализа. Отличительной чертой лирики Поэта от подобных произведений является то, что философия в произведении, вместо того чтобы утомлять читателя, еще больше увлекает его и побуждает к осмыслению своей жизни. В то же время гармония жизненных событий с опытом поэта, выражение этой реальной реальности как уникального философского

размышления, делает его поэзию еще более непохожей на поэзию других современников.

**Ключевые слова:** лирика, жизненная правда, художественная интерпретация, поэтический образ, метафора, символические образы, человеческая психика, философская лирика, изображение природы, лирический герой, современная поэзия, художественное выражение, литературный анализ.

Aleksandr Arkadevich Faynberg hayotiy haqiqatlarni turli mavzulardagi asarlari bilan badiiy ochib bergan mahortli ijodkordir. Uning asarlarini o'qir ekanmiz, inson hayotidagi quvonch, iztirob, orzu umid, sevgi, urush xotirasi, og'riqlari, vaqt o'tishi singari masalalar shoir lirikasida o'zining yorqin aksini topgan degan xulosaga kelishimiz aniq. Masalan, shoir urush mavzusidagi yozgan asarlari haqiqiy tajribaga tayanib yozilgan bo'lib, inson ruhiyatiga urushning qay darajada ta'sir etishini ko'rsatib beradi. "1941" she'rida Faynberg urushni faqat tarixda yuz bergan voqea emas, inson qalbiga tushgan bitmas og'riq sifatida tasvirlaydi. Unda urushning inson psixologiyasiga beradigan bevosita ta'siri, ayрилиq, sadoqat tuyg'ulari keng ko'lamda yoritiladi.

Faynbergning ko'pchilik asarlarida oddiy hayotiy voqealar ham chuqur ma'no kasb etadi. Misol uchun, u tabiat tasvirlari vositasida inson qalbining yashirin kechinmalarini ifodalaydi. Oy, yom'ir, yulduz, daraxt, dengiz kabi tabiat elementlari shoir uchun shunchaki tabiat tasviri emas, inson qalbidagi tuyg'ularning badiiy ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotshunoslarning fikriga ko'ra, Faynberg she'riyatidagi tabiat tasvirlari inson ichki dunyosi bilan uzviy bog'liqlikni hosil qilgan. Masalan, dengiz, yulduzlar yoki shamol kabi obrazlar inson hayoti, vaqt o'tishi va xotira bilan bog'liqlikni ifodalab keladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Faynberg o'z asarlarida hayot haqiqatlarini madh etish bilan bir qatorda, ularga falsafiy sayqal berishni ham unutmaydi.

Avval ta'kidlaganimizdek, Faynberg she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan biri badiiy talqin va poetik obrazlarning boyligidir. Shoir o'z fikrlarini shunchaki bildirmasdan, ularni metafora, razm, jonlantirish singari adabiyotning eng ajoyib san'atlaridan foydalangan

holda yuqori saviyali estetik namunaga aylantiradi. Oy, sukunat, shamol obrazlarini misol qilib keltirsak, ular shoir lirikasida yuqori darajadagi kechinmalarni ramziy jihatdan ko'rsatib beradi. Mana shu jihatdan, ijodkor lirikasiga "Sharq poetikasi va G'arb lirikasi an'alarining uyg'unligi" deya baho beriladi.

Aleksandr Faynberg lirikasida metafora va ramziy obrazlar eng ko'p qo'llanilgan badiiy ifoda qurilmalaridan sanaladi. Masalan shoir she'riyatida qo'llanilgan "egri oy" obrazi hayotning o'tkinchiligi va go'zallikning noaniqligini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. Bu kabi obrazlar shoir falsafiy qarashlarini ochiq beradi.

Bundan tashqari, Faynberg she'rlarida insonning ichki monologi muhim o'rin egallaydi. Lirik qahramon ko'pincha o'z hayoti, xotiralari va kelajagi haqida o'ylaydi. Bu esa she'rga chuqur psixologik mazmun baxsh etadi. Uning she'rlarida sevgi, izzitirob va umid hislari psixologik jihatdan ochib berilgan.

Shoir she'riyatida falsafiylikni yuqori o'ringa qo'ygani sababli, tabiat obrazlari uning ijodining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Tabiat manzaralari shoir uchun she'rda tasvirlanayotgan sahnaning foni emas, balki lirik qahramon qalbida mavj urib turgan tuyg'ular murakkabligining ifodasidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr arkadevich Faynberg lirikasida hayotiy haqiqat va badiiy talqin o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Shoir real hayotdan olingan voqealarni chuqur falsafiy mazmun vositasida boyitadi, ularni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Faynberg she'rlari nafaqat badiiy jihatdan, balki ma'naviy va falsafiy mazmun bilan kitobxonni o'ylashga undaydi. Shu boisdan ham Faynber lirik olamini o'rganish har qaysi zamonda ham o'zining badiiy ahamiyatini yo'qotmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov, N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Faynberg, A. A. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2009.

3. Qosimov, B., Yusupov, Sh. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Yo‘ldoshev, Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. Hamdamov, U. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi (5 jildlik). – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.
7. Temirboyeva, M. Aleksandr Faynberg lirikasining badiiy xususiyatlari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022.